

**QO'LDA BAJARILADIGAN KASHTA CHOKLARI  
TURLARINI O'RGANISH**

**Gulhayo Abdusattorovna Mirboboyeva<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Farg'onan davlat texnika univeristeti

*Yengil sanoat muhandisligi kafedrasiga katta o'qituvchisi*

*[g.mirboboyeva@ferpi.uz](mailto:g.mirboboyeva@ferpi.uz)*

**MAQOLA MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 16.06.2025*

*Revised: 17.06.2025*

*Accepted: 18.06.2025*

**KALIT SO'ZLAR:**

*choklar, tola, tanda, arqoq,  
iplar, suv chok, chilvir chok,  
iroqsimon chok, petlya chok,  
popop chok*

*Ushbu ilmiy maqolada qo'lida bajariladigan chok turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada kashta tikish uchun asbob uskunalar va chok turlarini qanday tikilishi haqida unga tayorgarlik Oddiy choklar, oldinlatilgan chok, qaytma chok, suv chok, chilvir chok, iroqsimon chok, petlya chok, popop chok, igna tugunchalar, o'rama choklar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kashta tikish asboblari va moslamalari**

Qo'lida kashta tikish uchun juda oddiy asboblar kerak bo'ladi. Bular: igna, angishvona, qaychi, santimetr tasmasi, uchli dukcha, gardish, bundan tashqari, millimetrlangan qog'oz, kalka, ko'chirish rangli qog'ozi.

Kashta tikish uchun cho'ziqroq ko'zli kalta (1 va 2 raqamli kashta tikadigan) *ignalar* tanlangani ma'qul. Ignalarning ko'zi katta bo'lsa, bir necha qavat ipni o'tkazish oson bo'ladi. Bunday ignalar sanama va oddiy choklarni tikishda, shuningdek, vladimircha chokli kashtalari tikishda ishlataladi. Jun ipni ignaga o'tkazish qiyin bo'ladi. Bu ipni o'tkazish uchun sotuvdagi ignalar komplektidagi ip o'tkazgichdan foydalanish mumkin. Shuningdek, bir qatim ipak yoki ingichka g'altak ip bilan ham o'tkazsa bo'ladi. Ipakni ikki qavat qilib, hosil bo'lgan halqa ichiga jun ipning uchi kiritiladi. Ipakning ikkala uchini igna ko'zidan o'tkazib, jun ip bilan tortib olinadi. Zich va yupqa (markizet, polotno, shoyi, batis) gazlamaga kashta tikishda ko'zi kichkina, ingichka igna kerak bo'ladi. Yo'g'on igna

sanchilgan joylarda teshik qoladi, katta ko‘zli ignada esa ingichka ipni yaxshi tutib bo‘lmaydi. Buyumlamli biriktirib ko‘klash uchun 1 va 3 raqamli ignalami ishlatish qulayroq[1].

Kashta tikish jarayonida ignani gazlamadan o‘tkazish uchun *angishvona* kerak bo‘ladi. U barmoqqa igna kirishdan saqlaydi. Angishvona o‘ng qo‘lning o‘rta barmog‘iga taqiladi, uni barmoqning yo‘g‘onligiga qarab tanlanadi, lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qoladigan bo‘lmasligi lozim.

Ishlash uchun uch xil *qaychilar*. uchi ingichka kichkina qaychi - gazlamadagi ipni qirqish va tortib tashlash uchun; uchi qayirilgan o‘rtacha kattalikdagi qaychi - kashta tikayotganda ip uchini qirqish uchun; katta qaychi - gazlama va kalava iplami qirqish uchun ishlatiladi. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig‘larining uchi to‘la yopiladigan bo‘lishi kerak. *Santimetr tasma* tikish ishlarida buyum o‘lchamlarini aniqlash, gazlamaga bezakni rejlash, kashta tikish ishlarini bajarishda foydalaniladi[2].

*Uchli dukcha* (suyakdan, yog‘ochdan yoki plastmassadan tayyorlanadi) oq tekis chokli kashta tikishda teshikchalar hosil qilish uchun ishlatiladi. Dukcha diametri taxminan 5 mm, uzunligi 6-8 sm boiishi lozim.

*Gardishlar* gazlamani tarang tortib turish va deformasiyalanishdan saqlash uchun ishlatiladi.

Gardishlar to‘g‘ri burchakli yoki doira shaklida bo‘ladi. Doira shaklidagi yog‘och gardish juda qulay. U diametri 20-40 sm li ikkita gardishdan iborat bo‘lib, bir-birini ichiga tushib turadi. Hozirgi vaqtda turli-tuman gardishlar mavjud bo‘lib, ularga gazlamani kiydirishda maxsus burama joyidan foydalanish mumkin, ya’ni gardish buramasini bo‘shatib katta va kichik gardishlar ajratib olinadi. kichik gardishga gazlama tortilib katta gardishga kiydirladi va burama mahkamlanib qo‘yiladi[3].

Kashta tikiladigan gazlamani gardishga tortishda uni kichik gardish ustiga qo‘yib, gazlamaning tanda va arqoq iplarini qiyyatirmaydigan qilib to‘g‘rilanadi. Katta gardishni uning ustiga qo‘yib, bosib gazlama tarang tortib qo‘yiladi. Gardishga tortilayotgan yupqa gazlama yirtimasligi, shuningdek, kashta tikiladigan gazlama ish paytida kir bo‘lmasligi uchun uning ustiga o‘rtasi gardishning diometridan kichikroq doira qilib kesilgan boshqa gazlama qo‘yiladi.

*Millimetrlri qog‘oz* naqshlar, ayniqsa, geometrik, sanama naqshlar tuzishda kerak bo‘ladi. Kashta gulini gazlamaga ko‘chirishga tayyorlashda kalka ishlatiladi. Gul avval asl nusxdadan kalkaga, so‘ngra kalkadan gazlamaga ko‘chiriladi. Kashta gulni gazlamaga ko‘chirish uchun *ko‘chirish rangli qog‘oz* ham ishlatiladi[4].

## Kashta tikishga tayyorgarlik



1 – rasm Taylor kashta

Kashta tikishni boshlashdan oldin gazlamaning tanda va arqoq iplari bo‘ylab tekislab, ustiga bezak qo‘yiladi va gazlamaga ko‘chiriladi. So‘ng gazlama gardishga tortiladi. Gazlama chetlarini tekislab olish uchun gazlamaning chetidagi ipini sug‘irib olinadi, uning izi bo‘ylab ortiqcha gazlama qirqib tashlanadi. Buyumning bo‘yi va eni ham shunday belgilanadi.

Ko‘pincha dasturxon yoki salfetkaning bukilgan chetiga yo‘l shaklidagi bezak tikiladi. Ana shunday yo‘l shaklidagi bezaklar bilan buyum yuzasini kvadratlarga, to‘rtburchaklarga bo‘lib, ulariga kashtaning asosiy bezagini tiksa ham bo‘ladi. Kashta gulini gazlamaga tushirishdan oldin yo‘llar o‘rnini belgilab, bittadan ip sug‘irib olinadi. Natijada buyumning yuzasi kvadratlarga yoki to‘g‘ri to‘rtburchakka bo‘linadi. Shundan keyin ip sug‘irib hosil qilingan yo‘llar orasiga asosiy kashta bezagi joylashtirib, uni gazlama ustiga ko‘chiriladi. Kashta tikib bo‘lingandan keyin bu izlar ustiga biror chok yuritib tikiladi[5].

Agar kashta bezagi geometrik ko‘rinishda, shuningdek, gazlamaning to‘qilgan iplari aniq ko‘rinib turgan bo‘lsa, gazlama ipini sanash yo‘li bilan tikish mumkin. Gazlama tuzilishiga bog‘liq bo‘lmagan chokni (vladimircha chok, rangli tekis chok va hokazolarni) tikishda bezakni gazlama ustiga ko‘chirish lozim bo‘ladi[6].

Kiyim-kechaklarga ularni bichishdan oldin yoki ularning bichilgan detallariga kashtani tikib olish eng qulaydir. Bichishdan oldin tikishda kiyim detallarining konturlari andoza bo‘yicha belgilab chiqiladi, keyin bezak ko‘chiriladi va tikiladi. Oson bezaklarni kiyimga tikish mumkin. Bunda gazlama tagiga qattiq qog‘oz yoki taxtacha qo‘yib, unga kashta guli ko‘chiriladi.

**Foydalaniłgan adabiyotlar:**

[1]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal,3(05),1–10.

[2].Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research.2(03).16-21.

[3].Raxmatovna.M.S.(2022).Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties.Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5,May,2022.7

[4]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men's clothing. Innovative Technological:Methodical Research Journal,2(10),15-20.

[5].Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.

[6]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).